



Tadqiqot.uz



**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**30 APREL
№27**

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
27-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
27-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 27-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 20 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Muhammad Kozim Aminiy SHAYBONIYLAR SULOLASINING XUROSONDAGI HOKIMIYAT DAVRI.....	7
2. Asatova Dilafruz Sanaqulovna YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASH VA UNDA AJDODLAR MEROSINING O'RNI.....	11
3. Jalilova Marhabo Tohirovna SSSR HOKIMIYATINING QATAG'ON DAVRIDA O'ZBEKISTONGA QILGAN SIYOSATI.....	13
4. Ibrohimova Zilola Raxmatovna, Eshova Zilola Qodirovna JADIDCHILIK G'OYALARINING PAYDO BO'LISHI.....	15
5. Xidirova Maqsuda Karimberganovna, Atajonova Gulshoda Soburovna, Normatova Gulbaxor Qodirovna O'ZBEKISTON TARIXINING PREDMETI VA DOLZARB MUOMMOLARI.....	16
6. Матякубов Жуманёз Болтабой ўғли АМИР ТЕМУР ҚАРАШЛАРИДА ИЛМ-ФАН	18



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

SHAYBONIYLAR SULOLASINING XUROSONDAGI HOKIMIYAT DAVRI

Muhammad Kozim Aminiy
Termiz davlat universiteti tarix
fakulteti birinchi kurs magistranti
Email: Kazim.amini@gmail.com
Cell +93702124492

Annotatsiya. Ushbu maqolada 15-asr oxiri, 16-asr boshlarida Movarounnahrda Muhammadxon Shayboniy va hozirgi Eron hududida esa Shoh Ismoil Safaviy hukm surar edi. Ushbu ikki muqtadir davlat biri sunniy mazhab, ikkinchisi esa shia mazhab nomida bir-biri bilan dahshatli urushlar olib boradilar. Ayni vaqtda Turkiyada Usmonli imperiyasi hokimiyati bo'lib, ushbu urush tomonlardan birini himoya ostida oladi.

Kalit so'zlar: shoh Ismoil Safaviy, Movarounnahr, Eron, Safaviylar, Shayboniylar.

Shayboniylar xonlik hokimiyati bo'lib, 16-asr milodiy (10-qamariy asr) asr boshlari Shibakxon vositasida, Amudaryoning janubiy tamonidan, Temuriylar hokimiyatining so'nggi yillarida qurildi. Ushbu sulolaning asoschisi Abulxayrxonning nabirasi, Shohbudoq sultonning o'g'li Muhammadxon Shayboniy (1451-1510) bo'lib, otasining erta vafotidan so'ng, bobosining qaramog'ida qolgan. Muhammadxon Shayboniy Abulxayrxon vafotidan so'ng, Dasht-i Qipchoqning asosiy hududida, o'zbeklar orasida o'z hukumronligini o'rnatdi. U asta-sekin Amir Temur Ko'ragon vositasida asos qo'yilgan yirik imperiyani inqirozga uchratib, muntazam bir usul bilan, O'rta Osiyo va hozirgi shimoliy Afg'oniston hududlarigacha hokimiyat surub, O'rta Osiyoda ushbu sulolaning hokimiyati tazzorlik Rusiya bosqinigacha davom qildi. shuningdek Buxoro va shimoliy Afg'onistonda Shayboniylar hokimiyati, Ashtarxoniylar (Joniylar) vositasida ag'darildi.¹ Asli – nasli o'zbek Shayboniylar hokimiyat davri butunlay Eronliklar bilan urush va to'qnashuvda o'tdi. Demak Shayboniylar hokimiyati markazlashgan bir davlat bo'lmagani bois, har bir mintaqa va shaharda bir xon hokimiyat qilardi. O'rta Osiyo keng sohasida hokimiyat qilayotgon qator xonliklar orasida, eng muhimi Buxoro va Xiva xonliklari sanalar edi. Ushbu ikki mustaqil xonlik ruslar hokimiyat davrigacha barqaror edi. Abulxayrxon vositasida ko'chmanchi o'zbek qabilalar orasida o'rnatilgan ushbu xonliklar hokimiyati O'rta Osiyoda bir asr davom etdi natijada Shayboniylar sulolasiga mansub O'rta Osiyodagi hokimiyatining Xuroson hududi Safaviylar vositasida ag'darildi.

Shayboniylar sulolasining hokimiyat yillari.

1. Shibakxon (Muhammadxon Shayboniy) 1500-1510.
2. Ko'chkunchixon 1510-1530.
3. Abu Saidxon 1530-1633.
4. Ubaydulloxon 1533-1539.
5. Abdulloxon (birinchi) 1539-1540.
6. Abdullatifxon 1540-1551.
7. Navro'z Ahmadxon 1551-1555.
8. Pirmuhammadxon (birinchi) 1555-1560.
9. Iskandarxon 1560-1583.
10. Abdullaxon (ikkinchi) 1555-1598.
11. Abdulmo'minxon 1598-1598.
12. Pirmuhammad Shayboniy (ikkinchi) 1598-1598.²

Muhammadxon Shayboniy Qurgan Shayboniylar Hokimiyati

¹ Fard Gaffariy.abbosquliy.ieronning Safaviya davriyidagi siyosiy,ijtmoiy,iqtisodiyot va sanat torixiy.74-bet.

² .Xulosatul-tavorix.qoziy Ahmad munshiy qumiy(2-juldlilik) 230-bet.



Buxoro xonligini boshqargan sulola (1500-1601) Shayboniyxon asos solgan davlat. Muhammadxon Shayboniy 15- asr oxiri va 16- asr boshlarida toju-taxt uchun o'zaro kurashayotgan Temuriy shahzodalarning o'zaro qonli nizolari oqibatida, Movarounnahrning asosiy shaharlari bo'lgan Buxoro va Samarqandni osonlik bilan egallab, yangi davlat asos qo'ydi. Muhammadxon Shayboniy shu maqsad bilan qator Temuriy shahzodalar va amirlar jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur bilan qonli urushlar olib borib, uning Farg'onadan quvlab Kobul tomonga yo'l olib ketishiga sababchi bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining qimmatli asari bo'lgach "Boburnoma"da ushbu urush voqealardan jonli tasvir yaratib beradi.

Muhammadxon Shayboniy O'rta Osiyoda qilgan Temuriylar qarshisidagi urushlarda Movarounnahrning qolgan hududi va Xurosonni ham bu davlat tarkibiga kiritdi. Shaybonixonning butun umri urush va bosqinda o'tib, natijada shu urushlarda o'ldirildi. Sulton Muhammadxon Shaybonning asl nomi zahiriddin Muhammad Bobur yozishcha (Shibakxon) bo'lib, tarixiy manbalarda Muhammadxon Shayboniy, Shayboniyxon, o'zbek Shaybonixon hamda Sulton Muhammad Shayboniyxon shakllarida ham qayd qilingan. Muhammadxon Shayboniy aslida o'zbek qabilalariga mansub bo'lib, uning nasab silsilasi Abulxayrxon vositasida, Chingizxonning uchinchi o'g'li sanalmish Chig'atoyxonga taqaladi.

Muhammadxon Shayboniy o'zining bobosi bo'lgan Abulxayrxon tamonidan "Shohbaxt" izoziy laqabi bilan yod bo'lgan. Uning otasi Shohbudoq Sultonning erta vafotidan sung, bobosi qaramog'ida qolgan Sulton Muhammad Shayboniy, Boyshayx otalig'ida voyaga yetgan. U 15-asrning 80-yillarida Abulxayrxon vafotidan so'ng Qipchoq dashtining asosiy hududida o'z hokimiyatini o'rnatmoqchi bo'lgan. Muhammadxon Shayboniy 1490- yillarida o'zaro kurashlar va ichki nizolar tufayli tobora zaiflashib borayotgan Temuriylar hududi bo'lgan Movarounnahrda ham uz hukmronligini o'rnatish uchun harakat boshlagan.¹ 15- asr oxiri, 16- asr boshlarida Movarounnahrda qilgan yurishlari natijasida, hokimiyat boshqaruvi uning qo'lga o'tgan. Shayboniyxon Turkistonning Sig'noq, Sabron, Yassi shaharlarini ham o'z qo'l ostiga kiritgan. 1504-yil Hisor va hozirgi Afg'oniston hududida joylashgan Qunduz, Badaxshon va Balx shaharlarini, shuningdek 1505-yilda Xorazm, 1507- yilda Hirot ham Shaybonixon qo'l ostiga o'tgan, keyinroq u Eronning Mashhad va Tus shaharlarini egallagan. Shayboniyxon tuzgan davlat hamda uning avlodasi uning qatli dan kiye ham O'zoq eillar O'rta Osiyo va Xuroson ning turli mintaqalariyda hokimeyt so'rdilar, jumla dan maymana xonligiyda 1605-eilda Tohir biy (Tohir bek)nomli Muhammad xon shyboniy oiyla siga mansub bir shaxs hokimiyt qilardi .u esa bir qatar Olib borgan O'rushlar natijja sida maimana junub qsmiyda joiylshgan almor mintaqasi dagiy O'zbek larning mag'lubiytga O'chratti.²

Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asari Muhammad Solih 15- 16- asrlar taniqli o'zbek shoiri bo'lib, turli tazkiralarda qayd qilinishicha u va Zahiriddin Muhammad Bobur orasida yuz bergan bir anglashilmovchilik voqea tufayli, Temuriylar saroyidan quvlanib, Shayboniyxon saroyida yuz keltiradi. U umrining so'ngigacha Shayboniyxon bilan birga yurish-turishlarda bir joyda bo'lib, Shayboniyxonga atab tarixiy jangnoma dostonini yozadi. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asari 1506-1507- yillarda yozilgan doston. Asar Shayboniyxonning 1410-yildan 1455- yilgacha bo'lgan yurishlari tasvirga she'riy til orqali bag'ishlangan. "Shayboniynoma" 8902 misra (4451 bayt)dan iborat bo'lib, 76 bobdan tashkil topgan. 16-bob dostonning muqaddamasi va shundan 1-3 boblari hamd va na'tlardir. 4- bob so'z ta'rifiga, 5- 14- boblari Shayboniyxonning tavsif va ta'rifiga bag'ishlangan. 15-bob esa "Kitob nazmining sababi" bayonidadir. 16-bob Mulla Abdulrahim haqida. Asarning asosiy qismiy 17-bobdan boshlanadi.

Keyingi boblarda 1499- 1500-, 1505-1506-, yillarda ro'y bergan tarixiy voqealar birin-ketin izchil tarzda bayon etilgan. Doston 16-asr O'rta Osiyo xalqlarining turmush tarzi, kasb-kori, harbiy hunariga doir qiziqarli ma'lumotlar ham mavjud. Muhammad Solih ushbu asarida Sulton Mahmud G'aznaviy, Temur Sulton, Zahiriddin Muhammad Bobur, Husayn Boyqaro, Boqi To'raxon, Sulton Ali va Baddiuzzamon singari o'nlab tarixiy siymolar ham tasvirlangan.³ U o'zbek va fors tillarini mukammal bilib, ushbu ikki tilda ijod etgan. Muhammadxon Shayboniy yozgan fard, g'azal va ruboyilari bizga qadar yetib kelgan. Uning o'z o'g'li Temur sultonga atab yozgan pand-u nasihatlaridan iborat kitobining yagona nusxasi Turkiyada saqlanib kelmoqda.⁴

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Sh harfi. 4451 bit

² Amini.M.kozim.Maimana torixiy(1751-1893)2-bet.

³ O'zbek adabiyoti tarixi (5 jildlik) 1-jild. 1977-yil. 9-bet.

⁴ Usha asar.9- bit.



SHAYBONILARNING DIN VA DINIY SIYOSATI

Shayboniylar aslida turkiy-mo'g'il sulolalardan bo'lib, ilk bor dasht-i qipchoqda o'z hokimiyatlarini o'rnatdilar. Shayboniylar nasab silsilasi Chingizxonning nabirasi, Shibonxon ibn Jo'jixonga taqaladi. Ushbu xonadon o'zlarining Changizxon oilasiga mansub qilish orqali O'rta Osiyoda istiqomat qiluvchi o'zbeklar orasida obro'-e'tiborga ega bo'ldi. Sulton Muhammad Shayboniy o'z bobosi Abulxayrxon vositasida qurilgan hokimiyat poyalarini mustahkamlab, uzoq yurishlar qilib, keyin ana shu bosqinlardan birida dahshatli tarzda o'ldiriladi. Ma'lumki O'rta Osiyoda Chingizxon va Mo'g'ullar dahshatli istilosidan keyin, islom diniy hayotida o'zgarishlar va orqaga chekinish yuz berdi.¹ Muhammadxon Shayboniy o'z davrida islom dinidan siyosiy foydalanish maqsadida, bu dinga siyosiy tus berib, undan o'z xalqini birlashtiruvchi bir kuch yasab, o'z hokimiyati doirasini kengaytirish niyatiga tushdi. Xuddi shu vaqtda Eronda birinchi shoh Ismoil safaviy ham o'z hokimiyat qalamravni kengaytirish maqsadida, islom dinining tarmoqlari sanalmish shia (Jafariya² mazhabi) Eronda rasmiylashtirib, musallat din darajasida ko'tarib, u yerdagi "qizilbosh" jamoasini o'z atrofida birlashtirib,³ Usmonli xalifalarga qarshi kurash boshladi. Muhammadxon Shayboniy O'rta Osiyoda islom dinining zuhuridan boshlab an'anaviy tarzda omma el orasida deyarli kuch va nufuzga ega bo'lgan din olimlari va mashoyixlardan unumli foydalanish hamda o'z hokimiyatni kuchaytirish maqsadida hanafiylikni o'ziga siyosat qilib qo'ydi. Chunki xuddi shu davrda Eronda yangidan qurilgan Safaviylar hokimiyati ham shunday bir ishga qo'l urib, iymomiylik va shia mazhabining Eron rasmiy dini sifatida qabul qilish yonida, uning ichki va tashqi siyosatga aylantirgan edi. Birinchi Shoh Ismoil Safaviy qudratga erishishi bilan u yerda yashovchi sunniy mazhab mashoyix va din olimlari Erondan O'rta Osiyoga qochib kelib, joylashtilar. Muhammadxon Shayboniy ushbu fursatdan foydalanib o'ziga din peshvosi maqomini berib, din olimlari tasdiqi bilan "Imom zamon va xalifayi Arrahmon" unvonini o'ziga tanlab, shu da'vo bilan yuzaga chiqib "rafiz"⁴ va bidat⁵ni yo'qotish maqsadida, Shoh Ismoil Safaviy bilan urushga tayorgarlik oladi. U ana shu g'oyaga erishish uchun safaviylar bilan dahshatli urush natijasida Marv shahrining "Mahmud obod" degan qishlog'ida 1510- yil(qamariy 916- yili) o'ldirildi. Shayboniyxon yashagan davri aslida islom dini rasmiy suratda parchalanib, shia va sunniy bir-biriga qarama-qarshi ikki davlatga bo'linganligi nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega.⁶ Shayboniyxonning qatl etilganidan keyin hokimiyatda bo'lgan uning farzandalari ushbu siyosatni davom ettirdilar. Mazkur g'oyani olg'a olib borgan Shayboniy sulolasiga mansub hokimlar jumlasidan, Buxoro amirlari Ubaydulloxon va Abdulloxon edi. Ushbu amirlar Movarounnahrda sunniy olim va mashoyixlar tasdiqi hamda Turkiya Usmonli Imperiyasini himoyati bilan "Nabaviy sunnat" va "Elhod rafe" maqsadida uzoq ellar shia Safaviylar qalamravida bosqin uyushtirib, qonli urushlar yo'lga tashlaydilar.

MUHAMMADXON SHAYBONIYNING SHOH ISMOIL SAFAVIY BILAN SO'NGGI URUSHI

Tarixchilar nuqtayi nazaridan Muhammadxon Shayboniy bilan Shoh Ismil Safaviy urushi Eron tarixchilari tomonidan turli tus berilgan. Jumladan, Eron tarixchilari so'nggi 4-5 asr mobaynida mazkur urushni forslar bilan o'zbeklar yoki shia va sunniylar urushi deb qayd qilganlar. Mazkur urush bir-biri bilan qo'shni bo'lgan ikki muqtadirda davlat orasida yuz beradi.

1510-yil Muhammadxon Shayboniy boshchiligida o'zbeklar bilan Eronlik qizil boshlar birinchi Shoh Ismoil Safaviy rahbarligida qonli urush qiladilar. Muhammadxon Shayboniy o'zbeklar xonligi darajasiga ko'tarilgandan keyin Amudaryoning narigi yoqi (Farorud)ga bosqin qilib,

¹ Asosan arab tilida ushbu davr (fitrat) deb nomlangan. Bu so'z asosan inqirozga uchrash, zaiflash, pasayib kitish va tadriijiy yo'qolish ma'nolarni ifoda qiladi.

² Ushbu ism Hazrat Ali® nabirasi bo'lgan imom Abu Ja'far Sodiq® mansub.

³ Mahdiy Sharifyon. Magistraturlik ilmiy risola. Tarix yo'nalishi. O'rta Osiyo va Kavkaz havzasi mutoliot markazi. Tehron universiteti. Eron 2010-yil.

⁴ Rafiz so'zi aslida rofiyylarga mansub bo'lib, Zayd ibn Alining o'z holida qo'yborib ketkan lashkarining bir qismiga aytiladi. Sunniylar istilohida har bir shia o'zidan o'zi rofiyiy qatorida turadi. Chunki, u choryorlar qatoridan uch kishiga iymon keltirishdan voz kechkan. (Dehxudo so'zligi. Eliktron varyanti. Ro harfi).

⁵ Bid'at yangi topilgan, misoli ko'rinmagan, yangi din, yangi usul. (Dehxudo so'zligi. elektron varyanti. Bo harfi).

⁶ Usha asar.



Temuriy podshohlardan sanalmish Abulg'oziy Bahodir(H. Bayqaro) qo'shini bilan nechcha marta urishdi. Uzoq urush va to'qnashuvlardan keyin 1507-yil (qamariy 913-y) Bodg'isda yuz bergan urush natijasida, Temuriylar qo'shini ustidan g'alaba qozonish bilan Samarqandni egallab, so'ngra Hirot va Xurosonni qo'lga kiritib, Temuriylar sulolasi hokimiyatini ag'daradi.¹ U mazkur xabarni xat yozib shoh Ismoil Safaviyga yuborib, undan Eron toj-u taxtni o'ziga qo'yborishini talab qiladi. Muhammadxon Shayboniy Shoh Ismoil Safaviyga yo'llagan maktublaridan birida ta'na bilan: senga eng ezgu ish otangni kasb-kori (darveshlik)ni davom ettirishdir, men senga podshohlikni tark etishni maslahat beraman dedi. Chunki, Shoh Ismoilning nasab silsilasi ona tamonidan nasabi turk bo'lgan "Uzun hasan" va "Oqqo'yunlular"ga borib taqaladi. Muhammadxon Shayboniy bunga ham kifoya qilmasdan, o'z elchilari vositasida Shoh Ismoil Ota kasbining eslatish maqsadida qator sovg'alar orasida, aso, kachkul va boshqa darveshlik buyumlarni ham yuboradi. Natijada Shoh Ismoil Safaviy nechcha qatla maktublar almashtirilishdan keyin, u bilan urushga tayyorligini xabar beradi. Muhammadxon Shayboniy 1507-yil orasida yuborgan so'nggi maktubida Shoh Ismoilni shia mazhabini tanlab rivojlantirgani uchun haqorat qilib, mazkur mazhabni tark etishga buyuradi. Nihoyatda ushbu ikki davlat orasidagi siyosiy munosabatlar keskinlashib, dahshatli urush yo'lga tushadi. Shoh Ismoil Safaviy 1510-yil sultoniya tariqidan Ray² shahriga borib, Muhammadxon Shayboniyning kuyovi Ahmad Sultonbek va lashkar boshisi Xo'ja Ahmad Qo'ng'irotni u yerdan quvadi. Hirotida istiqomat qilayotgan Muhammadxon Shayboniy Shoh Ismoilning kelish xabarini eshitgach, Marv tamon qochadi. Muhammadxon Shayboniy Marvga kirgach u yerdagi qo'rg'onlarni mustahkamlab, bir qator chopar va elchilarni Movaraunnahr va Buxoraga uzatib, Buxoro amiri Ubaydulloxondan yordam so'rab, uni kutadi. Shoh Ismoil nihoyatda hiyla bilan uning Qo'rg'ondan urush maydoniga chaqirib, ikki sipoh bir-biri bilan urushadi. Ushbu dahshatli urush Marv shahrining "Mahmud obod" nomli qishlog'ida 1510- yil (916- qamariy) yuz beradi. Shoh Ismoil Safaviy Shayboniyxonning otlar tuyog'i ostida qolgan jasadini topib, boshini tanasidan kesib, terisini shilib oladi. Uning terisini somondan to'ldirib ikkinchi Sulton Boyazid Usmoniyga yuborib, bosh suyagini oltin qoplab sharob ichish uchun idish qurshab umrining so'ngigacha unda aroq ichadi³. Shoh Ismoil Safaviy bu dahshatga kifoyalanmasdan uning o'ng qo'lini kesib, Mozandaronning Aliobod va Sori hokimi Rustam Ruzafunga yuboradi. Tarixiy rivoyatlarga ko'ra Muhammadxon Shayboniyning jasadi Marvdan Samarqandga olib kelinib, o'zi qurgan maqbarada dafn etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Amini.M.kozim."Maimana torixiy", (1751-1893), shumal bosma xonasi,ikkinchiy bosim, Balx-Mazor Sharif.2010-iyl.
2. Farid Gafforiy, Abbosquliy "Eronning Safaviya davridagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va san'at tarixi". Semat tashkiloti nashri.Eron 2001-yil.
3. Qumiy, Qozi Ahmad Munshiy. "Xulosatul-tavorix" (2-jildlik) "Safaviya tarixiy Shayx Safidan birinchi Shah Abbosgacha".Ehson Ishroqi tasihiy bilan.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Sh harfi.
5. O'zbek adabiyoti tarixi (5 jildlik) 1-jild. 1977-yil.
6. Mahdiy Sharifyon. Magistraturlik ilmiy risola. Tarix yo'nalishi. O'rta Osiyo va Kavkaz havzasi mutoliot markazi. Insoniy bilimlar fakulteti kutubxonasi. Sabt soni:780410. Tehron universiteti. Eron 2010-yil.
7. (Dehxudo so'zligi. Elektron varyanti. Ro harfi).fors tilida.
8. www. Wikipedia.

¹ www. Wikipedia.

² Tehron shahrining qadimgi nomi.

³ www. Wikipedia.



YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASH VA UNDA AJDODLAR MEROSINING O'RNI

Asatova Dilafruz Sanaqulovna

Xatirchi tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli
65-umumiy o'rta ta'lim maktabi Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada hozirgi bir davrda jamiyatning kelajagi bo'lgan yoshlarga berilayotgan e'tibor, yoshlarga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgani hamda yoshlarda milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini rivojlantirish, ajdodlar merosini avaylab asrash, ular qoldirgan madaniy, ma'naviy me'rosdan foydalanib yoshlarda Vatanga sadoqat, vatanparvarlik hissini shakllantirishga oid fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: yoshlar siyosati, fuqarolik jamiyati, milliy qadriyatlar, ta'lim- tarbiya. Milliy mustaqillik jamiyatimiz a'zolarining ijtimoiy –siyosiy, hamda madaniy ma'naviy kamolotining kafoloti sifatida, kundalik hayotimizda jamiyatimizning har bir bug'inida tub o'zgarishlarni olib kirdi. Bugungi kunda jamiyatda yoshlar real kuch sifatida o'zligini namoyon qilayotgan ekan, ular faoliyati milliy taraqqiyotimizning rivojiga yanada ijobiyroq yo'naltirishning yo'l –yo'riq va usullarini tadqiq etish zarurdir. Fuqarolik jamiyati asoslari mustahkamlanayotgan hozirgi bir davrda jamiyatning kelajagi bo'lgan yoshlarga e'tibor har qachongidan ham dolzarbdir. Shu bois bugungi kunda vatanimizda yoshlarga munosabat davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov *"Bugun biz o'tmishdan qolgan o'g'ir me'rosni, o'sha paytda yo'l qo'yilgan xato, kamchiliklarni bosqichma –bosqich tuzatib boryapmiz. Qilayotgan bu ishlarimizning amaliy namoyonini yoshlarga yaratilayotgan sharaotlar misolida ko'rish mumkin"* degan edilar. Yoshlarda milliy qadriyatlarimizga hurmat hissini rivojlantirish, ajdodlar merosini avaylab asrash, ular qoldirgan madaniy, ma'naviy me'rosdan foydalanib yoshlarda Vatanga sadoqat, vatanparvarlik hissini shakllantirmoq lozim.

O'zbek xalqining necha ming yillik tarixida qanday murakkab davrlar, og'ir sinovlar bo'lganini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonning eng yangi tarixi va biz erishgan olamshumul yutuqlar mard va matonatli xalqimiz har qanday qiyinchilik, to'siq va sinovlarni o'z kuchi va irodasi bilan yengib o'tdi.

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Buyuk yunon olimi Aristotelning "Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi", degan so'zlari bor.

Yoshlar tafakkurida demokratik taraqqiyot va milliy istiqlool rivojiga xos va mos dunyoqarshni shakllantirish va rivojlantirishga erishish bugungi kunda dolzarbdir. Buning uchun ma'naviyat, xalq maorifi sohalarida quyi tashkilotlar faoliyatining ustuvorligini ta'minlash, ularning moddiy texnika bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar orasida milliy ongning o'sishini ta'minlab, jamiyat a'zolari ruhiyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar takomiliga erishish ham muhimdir.

Yoshlarimizning bugungi jamiyatdagi o'z o'rnini belgilashi, maqsad va orzularini aniqlashida milliy va umuminsoniy qadriyatlar mezonini muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada ularning maqsad va orzularini to'g'ri belgilab olishga yordam berish, bu jarayonni ilmiy va rejali tashkil etishga alohida e'tibor berish lozim. "Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning orzusi bo'lib kelgan. Bunday orzudagi insonlar ma'rifatli, madaniyatli insonlar hisoblangan. Barkamol avlodni tarbiyalash masalasi mutaffakkir ajdodlarimizning ham diqqat markazida bo'lgan. Bu borada, Abu Nasr Farobiyning **"Fozil odamlar shahri"** asari ahamiyatga molik. Unga ko'ra, jamiyatning har bir fuqarosi mansabi, tutgan o'rni, ya'ni kim bo'lishidan qat'iy nazar fozil kishi bo'lishi zarur.

Ilk o'rta asrlarda Xorazm diyorida vujudga kelgan **"Ma'mun akademiyasi"** butun g'arb va sharq olamida qanday yuksak shuhrat qozongani hammamizga ma'lum. Jo'shqin Amudaryodan suv ichib muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog'ida unib o'sgan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan Abu Rayxon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmid-din Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg'uziy, Sulaymon Boqirg'oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko'plab allomalar, shoir va mutaffakkirlarning nomlari jahon



sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan.”

Barkamol avlodni shakllantirishda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” alohida o’rin tutadi. Dasturning asosiy maqsadi ham aynan barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat. O’zbekiston Respublikasining kelajagi uchun shu mamlakat yoshlarining xizmatlari muhim ahamiyatga ega. Milliy istiqbolimizning otashin kurashchilaridan biri Abdurauf Fitrat o’z she’rida **“Vatan sadagohimdir”** degan fikrni bayon qiladi. Shunday ekan vatan tuyg’usi, vatan tushunchasi biz uchun sajdagohday bo’lmog’i darkor. Biz ona vatan istiqbolini, uning shonu –shavkatini himoya qilmog’imiz barkamol inson sifatida shakllantirishimiz lozim.

“Biz O’zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo’ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo’lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog’chadan boshlab oliy o’quv yurtigacha –ta’limning barcha bo’g’inlarini isloh qilishni boshladik deb ta’kidladilar prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojatnomasida (24.01.2020).

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a’zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm ma’rifat, yuksak ma’naviyat kerak. Ilm yo’q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to’g’ri yo’ldan adashish bo’ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik-bu aql zakovat va ilm, eng katta meros –bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik –bu bilimsizlikdir”! Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o’zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo’lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Yoshlar tafakkurida demokratik taraqqiyot va milliy istiqbol rivojiga xos va mos dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishga erishish bugungi kunda dolzarbdir. Buning uchun ma’naviyat, xalq maorifi sohalarida quyi tashkilotlar faoliyatining ustuvorligini ta’minlash, ularning moddiy- texnika bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar orasida milliy ongning o’sishini ta’minlab, jamiyat a’zolari ruhiyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlar takomiliga erishish ham muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Karimov I.A. Yoshlarga ishonch bildirish ularning tashabbus va salohiyatini ro’yobga chiqarish –bugungi kunning ustuvor vazifasidir.//Inson, uning huquq va erkinliklari –oliy qadriyat. T.O’zbekiston, 2006
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Oqituvchi va murabbiylar kuni”ga bag’ishlangan tantanali marosimidagi nutqi .30.09.2020
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent “O’zbekiston”2017
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 24.01.2020.



SSSR HOKIMIYATINING QATAG'ON DAVRIDA O'ZBEKISTONGA QILGAN SIYOSATI

Jalilova Marhabo Tohirovna

Andijon viloyati Andijon shahri

24-umumta'lim maktabi Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada SSSR hokimiyatining qatag'on davrida O'zbekistonga qilgan siyosati hamda qatag'on davrida nohaq qatl qilingan O'zbekistonning ziyoli vakillari xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: sovet tuzumi, qatag'onlik siyosati, jadidlar, "Qatag'on qurbonlari". Sobiq Ittifoqning tarixi sahifalarida millionlab fuqarolarning qonlari bilan yozilgan sahifalari mavjud bo'lib, bu mustabid sovet tuzumining **qatag'onlik siyosatidir**.

XX asrning 30-yillariga kelib jahon xaritasida mutlaqo qayd etilmagan "**Gulag**" lagerlari tashkil topdi. Uning fuqarolari haq-huquqsiz Sovet Ittifoqi Qahramonlari, mashhur fan-arboblari, mohir diplomat, shoir va yozuvchi, rassom yoki nomlari hech kimga ma'lum bo'lmagan ishchi, kolxozchilar edi. Bu albatta sovet davlatining qatag'onlik siyosati natijasi edi.

Butun Sobiq Ittifoqda bo'layotgan qatag'on siyosati O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Stalin va uning qonxo'r jallodlari o'zbek xalqining chin farzandlariga nisbatan ham qatag'onlar yo'lini tutdilar.

Markaz hukumati yangi sotsialistik jamiyat qurilishi davomida O'zbekistonga o'zining ko'p sonli sadoqatli xodimlari, vakillarini rahbar lavozimlarga yuborib turganligi bejiz emas. Xususan, ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lish, ularning yo'nalishlarini, maqsad, vazifalarini belgilash, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatish, nazorat qilish mumkin bo'lardi. Markaz O'zbekistonlik milliy kadrlarning kundalik ishlariga "ko'z-quloq" bo'lish, ular faoliyatini tekshirish, taftish qilish barobarida sotsializm qurilishi yo'lida sadoqat bildirganlarni tanlash, tarbiyalash, ularni yuqori mansablarga ko'tarishni o'z e'tiboridan chetda tutmadi Rahbar kadrlar, ayniqsa, o'z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko'zlab, o'zida kuch, iroda topib, bor haqiqatni aytishga jur'at qilgan millat vakillari birinchi navbatda hukmron Markaz uyushtirgan qatag'onga duchor bo'ldi. Buning yorqin ifodasini Sovet mafkurachilari tomonidan o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga qaratilgan, atayin to'qib chiqarilgan "**18lar guruhi**", "**Inog'omovchilar**", "**Qosimovchilar**" guruhlari misolida ko'rish mumkin.

Mustabid tuzum hukmdorlari uchun O'zbekiston singari milliy Sovet Respublikasi rahbarlari, xodimlarini to'la itoatda tutishning birdan bir sharti - bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik, vaqti - vaqti bilan silkitib turish, mabodo xato, kamchiliklari topilguday bo'lsa, shafqatsiz jazolash yo'li edi. Milliy kadrlar faoliyatiga nisbatan bunday noinsoniy, g'ayriqonuniy yondashuv oqibatida respublikada o'z ongli hayoti, jo'shqin faoliyatini sovetlarning yolg'on, soxta g'oyalari, sotsializm g'alabasi uchun bag'ishlagan, shu yo'lda jon fido etib kurashgan qancha yetuk partiya va davlat rahbarlari qatag'on domiga g'arq bo'ldilar. O'zbekiston ravnaqi, xalqining baxtu saodati uchun fidoyilik ko'rsatgan **Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Rahimboyev, Isroil Ortiqov, Abdulla Kari mov** va boshqa o'nlab mahalliy rahbar kadrlarning qismati, pirovardda, mana shunday fojia bilan yakun topdi.

Stalincha siyosiy qatag'ondan jamiyatning sog'lom kuchlari, milliy ziyolilar eng ko'p aziyat chekdi, mislsiz qurbonlar berdi. Negaki, totalitar rejim mutasaddilari o'zlari jaholatparast kimsalar bo'lganligidan, ilm-ma'rifat, ziyo ahlini qadrlash, e'zozlash o'rniga ularni xo'rlash, tahqirlash, kerak bo'lsa, yo'q qilishni o'zlariga kasb qilib olgandilar. Shu bois, vaqti - vaqti bilan ziyoli kadrlarni qatli om chig'irig'idan o'tkazib turish ular uchun odatiy hol bo'lib qolgandi. Masalan, butun hayoti va ijodini millat baxt - saodati, yurt istiqboli uchun bag'ishlagan **Munavvar qori Abdurashidov** shu davrda avj olgan sovetlar ig'vosi va bo'htonining aybsiz qurboni bo'ldi. Uning rahnamoligida millat ravnaqi va istiqloli yo'lida faoliyat yuritgan, xalqqa ziyo taratib kelgan "Milliy istiqlof" tashkilotining 87ta a'zosi ustidan sud uyushtirildi. Ularning 49 nafari "Xalq dushmani", "Burjua millatchisi" degan ayblar bilan qoralanib, og'ir jazolarga hukm qilindi.

1925-yildan keyingi O'zbekiston SSRning taraqqiyot yo'liga lenincha kompfirqani O'zbekistondagi qo'g'irchoq bo'limi sifatida O'zbekiston kommunistik firqa tashkiloti rahbarlik



qildi. Bu firqa faoliyatining asosini Lenin ishlab chiqqan va asoslab bergan soxta sosializm qurish rejasi tashkil etardi. Lenin ishlab chiqqan “sotsializm qurish rejasi”da mamlakatni **“sanoatlashtirish”** va **“jamoalashtirish”** kabi bo‘g‘inlar markaziy o‘rinni egallaydi.

Sovetlar hukumati va Kompartiya Turkistonda **“Lenincha milliy siyosati”** niqobi ostida jahon tarixida ko‘rilmagan manfur va reaksion siyosat olib bordi. Bu siyosatning bosh yo‘nalishi **“bo‘lib tashla, hokimlik qil!”** dan iborat bo‘lib, u azaldan, asrlar osha yagona va bir butun bo‘lgan Turkistonni parchalab yuborishga qaratilgan edi. 20-30-yillardagi amalga oshirilgan “madaniy inqilob” davrida juda katta xatoliklarga yo‘l qo‘yildi, hatto kechirib bo‘lmas jinoyatlar sodir etildi. A.Qodiriy, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Otajon Xoshimov, Botu va boshqa istedadli ijodkorlar qatag‘on qurboni bo‘ldilar. Dinga qarshi kurash niqobi ostida masjidlar vayron qilindi. Birgina 1937-yilning dekabr oyida “uchlik”ning qarori bilan qatag‘on qilingan 3644 kishidan 353 nafari imomlar, eshonlar, mullalar va boshqa diniy xizmatchilar bo‘lgan. Bu esa qatag‘on qilinganlar umumiy sonining 10 foizdan ortig‘ini tashkil qilgan. 1929-30-yillarda respublikadagi yuzlab masjidlar yopilgan. Xulosa qilib aytganimizda, SSSR hokimiyatining qatag‘on respublikamiz hayotining barcha sohaları uchun qonli fojialar, beadam yo‘qotishlar bilan to‘lib toshgan davr bo‘ldi. U millionlab odamlarning taqdir-qismatida asoratli iz qoldirdi va mislsiz xunuk oqibatlarni yuzaga keltirdi. Shunga qaramay, xalqimiz bukilmaz irodasini, matonatini namoyon etib, yorug‘, charog‘on kunlar kelishiga intilib, kurashib yashadi. U stalincha qatli omning har qanday shiddatiga dosh berib, o‘z asriy qadriyatlarini, udumlari, rasm-rusumlarini saqlab, imon-e‘tiqodida sodiq qoldi va hamisha milliy istiqloi sari dadil harakatlanishda davom etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: 1998
2. Karimov SH., Turg‘unov I., Shamsutdinov R. Vatan tarixi. Uchinchi kitob. –T.: 1997
3. Usmonov. Q. va boshqalar. O‘zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. – T.: 1996
4. O‘zbekiston sovet mustamlakasi davrida. II-kitob. – T.: 2000



JADIDCHILIK G'OYALARINING PAYDO BO'LISHI

Ibrohimova Zilola Raxmatovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

24-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi
(+998912451372)

Eshova Zilola Qodirovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

24-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi
(+998907113574)

Annotatsiya: Jadidlar ma'rifatparvarchiligi va mustaqillik g'oyalarini o'rganish, uning millatimiz tarixida tutgan o'rni bugungi mustaqillik sharoitida tutgan o'rni beqiyosdir.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, milliy ozodlik, ma'rifatparvarchilik, "jadid", "yangi", yangilik tarafdori, "qadimchilar", vatanparvarlik, milliy birlik, milliy hamjihatlik.

XIX-XX asrlardagi sharoitda milliy ozodlik harakatining, shu jumladan, uning alohida ijtimoiy siyosiy oqimlari tarixiy jarayondagi o'rni va rolini xolisona o'rganish, dolzarb masala sifatida ilmiy doiraga chiqdi. Tarixiy tajribaning ko'rsatishicha milliy o'zlikni anglashning o'sishiga muhim turtki bo'lib kelgan va milliy ozodlik g'oyasini shakllantirib, o'z faoliyati bilan uni amalga oshirishga uringan kuchli progressiv harakat – jadidchilik bo'lgan.

Jadidchilik g'oyalari milliy istiqloq g'oyasi bilan uzviy aloqada ekanligini ta'kidlash kerak. Zero, jadidlarning ezgu g'oyalardan milliy mafkuramiz baxramand bo'lib, ozuqa oladi. Chunki, milliy mafkuramiz ozod va obod Vatanni barpo etish barobarida milliy mustaqillikni mustahkamlashga yo'naltirilgan harakatlantiruvchi kuch ekan, jadidlar harakati ham o'z davrida mustaqil Turkiston istiqboli uchun qayg'urgach, kerak bo'lsa o'zlarining tabarruk jonini ayamagan fidoiy millatdoshlarimiz ilgari surgan ozodlik va mustaqillik kabi g'oyalarini o'z ichiga olgan fenolin sifatida baholanadi. Shu ma'noda Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati va uning g'oyaviy merosida mustaqillik, milliy vatanparvarlik g'oyalari umumbashariy demokratik qadriyatlar bilan yo'g'irilgani uchun ham milliy istiqloq g'oyasining g'oyaviy-falsafiy asoslaridan biri sifatida qarash mumkin. Xullas, jadidlar ma'rifatparvarchiligi va mustaqillik g'oyalarini o'rganish, uning millatimiz tarixida tutgan o'rni bugungi mustaqillik sharoitida tutgan o'rni ham yoshlarning g'oyaviy tarbiyasini shakllantirishda, millatparvarlik, vatanparvarlik, milliy birlik, milliy hamjihatlik kabi qadriyatlarni singdirishda muhim ijtimoiy vazifani o'taydi.

Jadidchilik harakati va jadidlar hayoti, faoliyati, ularning ma'rifatparvarlik haqida fikr yuritishdan avval nazarimizcha "Jadid" so'zining lug'aviy ma'nosini istilohning mazmuni haqida tushuncha bermoq maqsadga mufoqi deb hisoblaymiz. "Jadidchilik" so'zining asosida "jadid" so'zi yotadi. "Jadid"ning ma'nosi "yangi" demakdir. U shunchaki "yangi" yoki "yangilik tarafdori" degani emas, balki "yangi" singari keng ma'nolarni o'zida mujassam etgan.

Jadidchilik g'oyalarining paydo bo'lishi va uning Turkistonga kirib kelishi Ismoilbek Gaspirali ochgan yangi maktab nomi bilan bog'liq. Ismoilbek Rusiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayr-xo'shlik yo'li bilan yaxlit bir milliy ommaga birlashtirishga erishdi. Sharq xalqlari ma'naviy hayotida, xususan, maktab maorifida chinakkam inqilob yasagan, "usuli jadid" nomi bilan tarixga kirgan "usuli savmiya"ni boshlab berdi. XX asr Sharqning eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligiga – jadidchilikka asos soldi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida mahalliy aholining ilg'or qatlamlari hisoblangan musulmon ziyolilari eski usuldagi maktablar va madrasalar davr talabiga javob bera olmasligini qayd etib, o'quv-tarbiya ishlari va o'qitish usullarini isloh qilish muammosini ko'tarib chiqdilar. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzim, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarashi kuch vakillari "qadim" yoki "qadimchilar" deb atalgan bo'lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa, jadid (yangi) yoki jadidlar (yangilik tarafdorlari) degan nom oldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Sharq yulduzi" jurnali, 1992, 5-son.
2. Milliy uyg'onish davri. O'zbek adabiyoti. T, O'zbekiston, 223-bet.
3. B. Qosimov. Jadidchilik. Yoshlik jurnali. 1990.



О'ЗБЕКИСТОН ТАРИХИНING PREDMETI VA DOLZARB MUOMMOLARI

Xidirova Maqsuda Karimberganovna

Xorazm viloyati shovot tumani 40-maktab tarix fani o'qituvchisi.

Email: maqsuda40maktab@umail.uz

Atajonova Gulshoda Soburovna

Xorazm viloyati shovot tumani 50-maktab tarix fani o'qituvchisi.

Email: gulshoda50@umail.uz

Normatova Gulbaxor Qodirovna

Xorazm viloyati shovot tumani 24-maktab tarix fani o'qituvchisi.

Email: gulbaxor24maktab@umail.uz

Annotatsiya: ushbu maqolada O'zbekiston tarixining predmeti va dolzarbligi, insonlarning faoliyat davomida qanday ahamiyatlarga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlari: madaniyat, maorif

O'zbekiston hududida istikmat qilayotgan xalqlarning tarixi qadim O'tmishga borib takaladi. Yashab turgan hududimiz tarixiy manbalari, arxeologik kazilmalari, xalq; ogzaki ijodi namunalari orqali umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganligini butun olam tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk zaminda buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, siyosatchilar, buyuk sarkardalar yashab o'tganlar. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu yerda yaratilgan, sayqal topgan. Milodgacha va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, osori atiqalar dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me'morchilik va shaharsozlik san'ati yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Topilgan ko'plab qadimgi toshyozuvlar, bitiklar, kutubxonalarda saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozmalar, ijtimoiy hayotning turli sohalariga doir o'n minglab qimmatbax, o'asarlari o'lka xalqlari ma'naviyatining yuksakligini namoyon kilib turibdi. O'zbekistan tarixi umumjahon - insoniyat tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. O'zbekistan tarixi fani xalqimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga kirishi, mustaqillik yillarida milliy xuquqiy davlatchilik ko'rilishi, demokratik fuqarolik jamiyatni shakllantirish, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish, jahon hamjamiyatiga integratsiyalashish jabhalaridagi faoliyatini o'rgatadi. Shu bilan bir qatorda bu fan xalqimiz tarixini haqqoniy tasvirlovchi, aks ettiruvchi ko'zgu, ijtimoiy, siyosiy, tarbiyaviy, ma'naviy saboqlar majmuasidir. Tarixiy haqiqat to'la ro'yobga chiqishi, haqqoniy tarix yozilishida tarix fanining predmeti va ob'ektini to'g'ri belgilanishi uta muham ahamiyatga eta.

Chunki, O'zbekistan tarixi fani uchun ham boshqa barcha fanlar qatori predmet va ob'ekt masalasi asosiy masala bo'lib hisoblanadi. Zero, fan, uning o'rganish predmeti va ob'ekta aniq bo'lmasa, uning oldidagi vazifa noaniq bo'lib, maqsadga erishish mushkul bo'ladi. O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlardan farqli o'larok mustaqil fan. Shuningdek, u barcha fanlar orasida alohida o'z o'rni va mavqeiga eta. U barcha fanlar tarixini ham o'z ichiga olgan xolda ularning rivojiga katta ta'sir etadi. Bu, uning o'rganish predmeti va ob'ekta hamda vazifasida to'la namoyon bo'lmog'i kerak. Tarix fani o'z xususiyatiga ko'ra, birinchidan, o'zining butun diqqat e'tiborini fakat O'tmishga karatadi, undan saboq beradi, xulosa chiqaradi, ajdodlarimizning moziyda qolgan hayot tarzini, ular yaratgan moddiy - madaniy, ma'naviy - mafkuraviy qadriyatlarni o'rganadi. Ikkinchidan, O'zbekiston tarixi fani boshqa ijtimoiy fanlarga nisbatan aniq fan. U matematika usulidan keng foydalanadi. Tarixiy voqea va hodisalar qat'iy aniqdikda, davriy ketma-ketlik - xronologik asosda o'rganiladi. Shuningdek, tarixiy voqea va hodisalar, hujjat va dalillarning haqiqiy va haqiqiy emasligi, ular qachon, kaerda, qanday tarixiy mux, it va sharoitlarda tarixan voqe bo'lganligi aniqlanadi. Bo'lib o'tgan vokelik qo'lamining aniq sabab va oqibatlarini, shu bilan birga, ularning aniq shakl - tamoyillari va xolati aniqlanadi. Uchinchidan, O'zbekiston tarixi fani O'tmishdagi iqtisodiy -ijtimoiy hayotning ahvoli, rivojlanishi va tanazzulining sabab hamda oqibatlarini o'rganadi, ulardan kelajak uchun saboq va xulosa chiqaradi. Bu esa, kelajak avlodlar uchun dasturulamal bo'ladi. To'rtinchidan, O'zbekiston tarixi fani ko'p qirralik va xilma - xillik xususiyatiga ega. U jamiyat taraqqiyoti va inkirozlarining fakat bir tomoninigina emas, balki jamiyatning hamma tomonlarini o'zviy o'zaro bog'liqlikdikda, bir butunlikda o'rganadi. O'zbekiston tarixi fani, O'zbekistonning o'tmishidagi va hozirgi hududida eng qadimgi davrlardan to hozirgacha kechgan vokeliklar, insoniyat hayoti, tabiat



va jamiyat taraqqiyoti va tanazzulini tahlil qiladi. Uning o'rganish predmetiga esa, mana shu maqondagi jamiki xilma - xil voqea va xodisalar, ulardagi umumiy aloqadorlik va yaxlit birlik hamda qonuniyatlar xodisasi va jarayonlar, umuman, xalq va insonning yaratuvchanlik faoliyati kiradi. O'zbekiston tarixi fanining o'rganish maqoni - ob'ekti O'zbekistonning tarixidir. Tarixiy ob'ekt (maqon)ga nisbatan O'zbekiston tarixi fanining maqsadi, vazifasi, yo'nalishi va harakat (faoliyat) doirasi yoki chegarasi belgilanadi. Ma'lum bir ma'noda ob'ekt bilan predmet bir-biriga juda yaqin tushuncha bo'lsa-da ular tarix fanida to'tgan o'rni va vazifasi bilan farqdanadi. O'zbekiston tarixi fani fan sifatida ijtimoiy - siyosiy, umuminsoniy fan bo'lib, inson va millat, o'z O'tmishini bilishi, o'zligini o'zi anglashi hamda kelajag'ini belgilashida asosiy dasturulamal hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy - siyosiy hayot sohasidagi yagona fan ham emas, jamiyat, insoniyat va tabiatning O'tmishini o'rganuvchi boshqa soha fanlari ham bor. Masalan, madaniyat, maorif, iqtisodiyot va boshqa fanlar shular jumlasidandir. Ammo, boshqa fanlarning hammasi ham, tabiat, jamiyat ham avvalo, katta tarixda aks etadi. Soha tarix fanlari ham tarix fanining o'rganish ob'ekta va predmeti hisoblanadi. O'zbekiston tarixi fani yakka xolda rivojlanmaydi. U ijtimoiy - gumanitar fanlar bilan doimo o'zaro aloqada turadi. Insoniyat hayotining ma'no - mazmuni va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqida fikr yuritganda falsafa, davlat ko'rilishi va jamiyatni boshqarish masalalarida siyosatshunoslik, iqtisodiy hayotni yoritishda iqtisodiyot nazariyasi, xalqning turmush tarzi, tili va milliy mentalitetini tasvirlashda etnografiya, O'zbek tili va adabiyoti, dinshunoslik fanlari yutuqdaridan foydalaniladi. Tarixshunoslik, manbashunoslik, arxeologiya, arxivshunoslik kabi maxsus fanlar tarix falsafasini chuqur anglab yetishga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Usmonov K, Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. I - qism. - T.: 2002. - B. 6-21.
2. O'zbekiston tarixi / R. Murtazaeva umumiy tahriri ostida, - T.: Yangi asr avlodi, 2003. -B. 7-20.



АМИР ТЕМУР ҚАРАШЛАРИДА ИЛМ-ФАН

Матяқубов Жуманёз Болтабой ўғли

Урганч шаҳар 26 –сон мактабнинг
тарих фани ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада Амир Темурнинг илм- фанни қай даражада қадрлагани унинг амалий исботлари билан келтириб ўтилган. Амир Темурнинг ёшлар тарбиясига бўлган эътибори айтиб ўтилган.

Калит сўзлар: Темур тузиклари, илм-фан, тарбия, таълим, заковот, фан, мадрас.

Шарқ донишмандлигининг бой тажрибаларини ўзлаштирган ва уни ривожлантиришга катта ҳисса қўшган Амир Темурнинг жамият, давлат ҳақидаги фикрларига назар ташласак, халқнинг осойишталикда, бахтли яшашида ва элни одилона бошқаришда энг асосий таъсир этувчи омилларнинг бири маърифат, илм - фан соҳаларини ривожлантириш деб ҳисобланганлигини кўрамиз. Соҳибқироннинг фикрича, давлатни ва ундаги ижтимоий ҳаётни бошқаришда, уни тўғри йўналишга солишда барча нарсалардан билим, ақл-заковат устун бўлиши лозим. Инсон ўз ақли билан давлатни идора қилиб, жамият ҳаётини фаровонлаштирувчи асосий кучдир. Шу боис мутафаккир давлат ишларининг тўққиз улуши кенгаш ва маслаҳат билан ҳал этилиши зарур эканлигини таъкидлаган эди. Амир Темур келажак авлодларга қолдирган «Тузуқлар»ида одамнинг шахсий ҳаётида, давлат ишларида катта аҳамиятга эга бўлган тафаккур, ақл билан иш юритиш каби ҳислатларига доимо диққат билан қараган. Тафаккур борлиқни, ижтимоий муҳитни билиш воситаси ва салтанатни шахснинг кенг қўламдаги ишларини тўғри йўналишда юзага чиқаришнинг асоси эканлигини аниқ тушунди.

Давлатни ақл билан одилона бошқариш мумкинлигига ишонган Саркарданинг «Тузуқлар»ида ижтимоий ҳаётни фаровонлаштиришнинг ўз йўли, ўз усули бор эканлигини баён этгани бизга маълум. Бу йўл унинг дунёқарашидан келиб чиққан, давлатда ақллиликнинг устунлигини сақловчи илмни ривожлантириб, таълим ва маърифат масканларини кўпайтириш билан боғлиқ эди.

Соҳибқирон давлат ҳаётида илм - фан бажарадиган хизматларнинг улуғлигини теран тушунган эди. «Мен азалдан илм шайдосиман» деб қалбидаги фикрни айтиши унинг жамиятни ривожлантириш борасидаги тўғри йўналишни танлаганини кўрсатади. Амир Темур илм -фаннинг инсонни, жамиятни ривожлантиришдаги хизматига катта баҳо бериб, ёшларга илм сирларини билишда муҳим вазифалар юклайди. Илмнинг одамни тўғри йўлга бошлашини, инсонни етук ақлга ва фазилатга эга шахс сифатида шакллантиришини, айниқса, назарда тутган ва ёшларнинг комил инсон бўлишига таъсир этадиган омилларнинг бири - унинг билим олиши деб тушунган Амир Темур Мовароуннаҳр пойтахти Самарқандда илм ва маданиятнинг гуллаб - яшнаши учун шаҳарга турли мамлакатлардан олимлар, хунарамандлар, қурувчи муҳандисларни йиққан. Шаҳарда фанлар академиясини очиб, давлатни ҳар томонлама ривожлантириш учун катта ишлар қилган. Дарҳақиқат, катта шаҳарлардан ташқари ҳар бир қишлоқда масжид ёки мадрасаларнинг қурилиши, ёшларга билим беришни анча ривожлантирганлигини кўрсатади. Мутафаккир ҳар бир инсоннинг саводли бўлишининг тарафдори эди. У ҳар бир шахс билим, савод эгаллаши зарур деб ҳисоблади. Шундай экан, Соҳибқирон халққа оммавий билим бериш ғоясини кўтариб чиқди деб тушуниш зарур. Амир Темур давлат миқёсида ва шахсан ўзи очган бу масжид-мадрасаларда билим бериш мазмунининг сифатли бўлишига ҳам катта аҳамият берди. Таълим муассасаларида билим олаётган талабаларга «Қуръон»нинг мазмунини, ундаги донишмандлик фикрларини тушунтириш ёрдамида билимликка эриштиришни, шу билан бирга, таълим олувчи ёшларга давлатнинг қонун -қоидаларини, шариатни ўргатиб, ундан амалда фойдалана билишни, одоб -ахлоқ масаласида эса Муҳаммад Ибн Абдуллоҳ яратган ҳадисларни ўрганиш ва уни раҳбарликка олиш зарурлигини, шу учта омил ёшларнинг комил инсон бўлиб етишини таъминлайдиган илм турлари деб ҳисоблаган.

Шулар билан биргаликда саркарданинг педагогика фанига ҳам алоқаси борлиги маълум. У подшоликка тегишли мажлис, маслаҳатларида ва олимлар билан бўлган учрашувларда давлатнинг ички ва ташқи аҳволи, диний, ҳуқуқий масалалардан ташқари, илм - хунара,



давлатдаги маърифат - маънавият соҳаси бўйича, шунингдек инсонларнинг феъл - атвори, одоб - ахлоқ муоммолари бўйича ҳам фикр алмашиб турган. Бунда Амир Темурнинг Халаб олимлари билан суҳбатидан ҳам яхши биламиз. Саркарда қатнашувчиларни савол-жавоб орқали фикр алмашиш йўли билан муҳокама этилаётган масаладаги адолатлиликини, тўғри мазмунни ўзлари таҳлил қилиб тўғри ечишга йўналтирган. Суҳбат эркин турда, очиқ қўнгиллик билан олиб борилган. Бунда муоммони ечишда фикр уйғотувчи саволлар бериш усулидан фойдаланиб, билиб туриб ўртага чалғитувчи фикрлар ташлаган. Сўнгра ўзи таҳлил қилиб, ўзи яқин ясаган. Савол - жавобга қатнашган фақиҳларнинг (ҳуқуқ билимдонлари) ҳар бири ўзларини худди мадрасада ўтиргандек ҳис қилиб, ўзларини кўрсатишга уринганлар, саволга жавоб қайтаришга шошилганлар. Амир Темурнинг бу услубий маҳорати мактаб, мадрасалардаги талабалар билан суҳбатлашиш жараёнида кенг қўлланилган ва ўз даврининг такомиллашган педагогик тажрибаларнинг бири ҳисобланган.

Хулоса қилиб айтганда, Соҳибқироннинг илм - фанни ривожлантириш ҳақидаги фикрлари жуда кенг масалаларни ўз ичига қамраб олиб, Темурийлар даврининг гуллаб - яшнаши, Темур цивилизациясининг доврўғ таратишига асос бўлган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Бўриев.О. Темурийлар даври ёзма манбаларда Марказий Осиётарихий - географик лавҳалар. - Т.: Ўзбекистон, 1997.- 186 б.
2. Каюмов А. Амир Темур қиссалари. -Т.: Ёзувчи, 1996. -32 б

"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР" МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 27-КЎП ТАРМОҚЛИ ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000
